



**MIFOLOGIYA VA DUNYŌQARASH: SHAKLLANISHI,
AHMIYATI VA MA'NAVIYATGA TA'SIRI**

Quvondiqova Sohiba Orif qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mifologiya va uning dunyoqarish shakli sifatidagi ahamiyati, shuningdek, ma'naviyatga bo'lgan ta'siri tahlil qilingan. Mifologiya odamlar va jamiyatlar orasida dunyo, tabiat va insonning o'rnini haqidagi ilk tushunchalarni shakllantirgan muhim vosita hisoblanadi. Miflar, tabiat va uning kuchlari, xudo va ruhlar haqidagi tasavvurlar orqali, axloqiy, ijtimoiy va diniy qoidalarining shakllanishiga yordam bergan. Ushbu maqola mitologiyaning falsafiy va ma'naviy ahamiyati ko'rib chiqilib, uning zamonaviy ilm-fan va madaniyatdagi o'rnini o'rganilgan. Mifologiyaning dunyoqarashga, ijtimoiy munosabatlarga va odamlarning ma'naviy qadriyatlariga bo'lgan ta'siri muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: mifologiya, dunyoqarish, ma'naviyat, axloq, din, ijtimoiy munosabatlar, xudo, ruhlar, tabiat, qoidalar, falsafa.

Kirish. Mifologiya insoniyat tarixining ajralmas qismi sifatida, qadim zamonlardan boshlab, dunyoqarashni shakllantirishda va ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Har bir jamiyat o'zining mavjudligini tushunishga, atrof-muhit bilan aloqasini belgilashga va hayotning maqsadini anglashga intilgan. Mifologiya, aynan, bunday intilishlarning dastlabki shakllarini ifodalagan, insonning tabiat, jamiyat va



o'zining o'rniga oid qarashlarini aks ettirgan. Miflar orqali jamiyatlar yaxshilik va yomonlik, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, adolat va zulm kabi axloqiy va ijtimoiy me'yorlarni aniqlagan. Shu tarzda, mifologiya nafaqat qadimgi e'tiqodlar va an'analarni ifodalaydi, balki insoniyatning ma'naviy va ruhiy dunyosini shakllantirgan asosiy omil bo'lgan.

Ushbu maqolada mifologiyaning dunyoqarash shakli sifatidagi ahamiyati, uning ma'naviyatga ta'siri va jamiyatning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Mifologik tasavvurlar orqali shakllangan qadriyatlar, bugungi kunda ham zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning zamonaviy madaniyat, ilm-fan va ijtimoiy hayotga ta'siri o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mifologiya va dunyoqarash o'rtasidagi bog'lanishni, shuningdek, mifologiyaning ma'naviyatga ta'sirini o'rganishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar, kitoblar va maqolalar muhim manbalar sifatida xizmat qilgan. Ushbu adabiyotlar yahlilida, mifologiya, dunyoqarash va ma'naviyatni o'rganishda ilmiy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shu navbatda ma'naviyat degan tushunchaga to'xtalsak. "Ma'naviyat" nima? Ma'naviyat —insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquwat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir¹. Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi «ma'naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.²

Huddi shundak ma'naviyat kecha yo bugun paydo bo'lgan tushuncha emas. U azaldan insonlar qon qoniga singib ketgan insonlar dunyo qarashi bilan birga shakllangan.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, Toshkent "Ma'naviyat" 2010. 20-b



Endi dunyo qarash nima, bizga uni qay darajada ahamiyatga ega ekanligaga to‘xtalamiz. Dunyoqarash tushunchasi. har bir kishining dunyoga nisbatan o‘z qarashi, o‘zi va o‘zgalar, hayot va olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, xulosalari bo‘ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. SHu ma’noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir. Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Insonlar ibtidoiy ravishda yashab boshlagan vaqtda ular o‘z dunyo qarashiga ega bo‘lmagan. Oddiy tabiat hodisalariga ham o‘zgacha ko‘z bilan qarashgan. Ularning aqliy tafakkuri qabul qila olmagan. Buni biz hozirda miflar, asotirlar, afsonalar shaklida o‘qib o‘rganib boryapmiz.

"Mif nima?" degan savol har doim ko‘ndalang bo‘lib turadi. Mif sodda qilib aytganda, olamning yaratilishi, insonlarning kelib chiqishi, shuningdek, xudolarning, qahramonlarning paydo bo‘lishi, ularning faoliyati haqidagi badiiy, sodda va ko‘pincha g‘alatk ko‘hna badiiy tafakkur mahsuli bo‘lgan parchadir. O‘z navbatida mif, mifologiya din bilan chambarchas bog‘liq tarzda o‘rganiladi. Barchamizga yaxshi ma’lumki, din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak idealari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimdir² Mana shunday fikrlarni ilgari surgan tarzda juda ham ko‘plab olimlarimiz va mifshunoslarimiz turli hil tatqiqotlar olib borgan. O‘z fikrlarini olg‘a surgan tarzda M. Gorkiy miflarda insonlarning faqatgina zaif tamonlarini emas, barcha amallarini va intilishlarini ham fantaziya asosida tasvirlashini gapirib o‘tgan. "Qadimgi ertaklar, miflar

² Karimov I. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch, Toshkent "Ma’naviyat" 2010. 20-b



va afsonalarning ma'lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy magʻzini chuqurroq tushunishingizni istardim...”³ deya takidlaydi.

Mifologiya oʻz navbatida badiiy adabiyot tizimida bafaqat oʻquv qoʻllanmakarda, balki topishmoq, maqol va ertak kabi janrlarda ham namoyon boʻladi. Misol qilib hayvonlar haqidagi ertaklarning paydo boʻlishida totemistik qarashlari asos qilib olingan boʻlsa moqol-matal hamda topishmoqlar shakllanishida qadimgi ajdodlarimizning tabiat va koinot bilan bogʻliq mifologik qarashlari, serhosillik gʻoyasini oʻzida mujassamlashtirgan arxaik rituallar qadimgi marosimlar, soʻz miqiyosi va tabu an'anasiga aloqador ishonch-eʼtiqodlar ham muhim rol oʻynaganini inkor qilib boʻlmaydi.

Xulosa. Mifologiya va uning dunyoqarashdagi oʻrni, shuningdek, ma'naviyatga ta'siri insoniyat tarixida beqiyos ahamiyatga ega boʻlgan. Mifologiya nafaqat qadimgi jamiyatlarning tabiat, hayot va jamiyat haqidagi qarashlarini aks ettirgan, balki ularning axloqiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy vosita boʻlgan. Miflar orqali insonlar yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, tabiat va inson oʻrtasidagi aloqalarni tushunishga harakat qilganlar. Shuningdek, mifologiya orqali ma'naviyatning rivojlanishi, xalqning axloqiy me'yorlari va jamiyatdagi ijtimoiy tizimlar yaratilib, ular zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol oʻynagan.

Mifologiyaning diniy va ma'naviy ahamiyati jamiyatlar oʻrtasida bir xil madaniy qadriyatlarni saqlashga va ular bilan bogʻliq eʼtiqodlarni rivojlantirishga yordam bergan. Zamonaviy ilm-fan, psixologiya va madaniyatshunoslikda mifologiya insonga ta'sir koʻrsatadigan kollektiv ongsizlikning ifodasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

³ Gorkiy M. Adabiyot haqida, Adabiy-tanqidiy maqolalar, OʻzCCCR, Davlat Badiiy adabiyoti nashriyoti, 1962, 265-bet



ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, Toshkent "Ma'naviyat" 2010.
2. M. Gorkiy. Adabiyot haqida, Adabiy-tanqidiy maqolalar, O'zCCR, Davlat Badiiy adabiyoti nashriyoti, 1962, 265-bet
3. Турабова, С. К. (2023). Влияние современных технологий и социальных сетей на формирование молодёжи. International scientific journal of Biruni, 2(3), 132-137.